

O‘ZBEK TILIDA ADABIY TIL VA DIALEKTLARNI O‘RGANISHNING
ZAMONAVIY METODLARI

Ilmiy rahbar Normo‘minov Sherzod To‘ychiyevich,
Magistr Meliqulova Shirinoy O‘tkir qizi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tili va shevalar o‘rtasidagi bir-biriga moslashish jarayonlarini tadqiq etishning zamonaviy metodologik mexanizmlari atroflicha yoritilgan. An’anaviy dialektologik yondashuvlar bilan bir qatorda, korpus lingvistikasi, sotsiolingvistik tahlil hamda lingvogeografik xaritalash usullarining nazariy-amaliy ahamiyatini asoslashga harakat qilingan. Tadqiqotda milliy o‘ziga xoslikni saqlagan lisoniy shaxsning nutqiy kompetensiyasida dialektal so‘zlarning o‘rni, shevaga xos leksik birliklarning adabiy me‘yorga o‘tish bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Adabiy til, dialektologiya, sotsiolingvistika, lisoniy shaxs, lingvogeografiya, korpus.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan til borasidagi siyosat milliy tilning ijtimoiy nufuzini oshirish, uning tarixiy jozibasini asrash va ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ona tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanish, uning tomirini chuqur o‘rganish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalari sirasiga kiradi [1. 45]. Ushbu jarayonda adabiy til va hududiy shevalar munosabatini obyektiv tahlil qilish, ularning o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ochib berish o‘zbek tilshunosligining asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Adabiy til millatning lisoniy birligini ta’minlovchi, ma’lum qoliplarga solingan yagona me‘yor vazifasini o‘taydi. Hududiy dialektlar doimiy harakatdagi, xalq tafakkurining qadimiy qatlamlarini, turmush tarzi va etnografik xususiyatlarini o‘zida qat’iy saqlab kelayotgan nodir manba sanaladi.

O‘zbek tilshunosligida shevalarni ilmiy o‘rganishning nazariy poydevori o‘tgan asrning o‘rtalarida fundamental asosda yaratilgan. V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlarning yirik tadqiqotlarida o‘zbek xalq shevalarining ilk ilmiy tasnifi, ularning fonetik va morfologik xususiyatlari tizimli ravishda yoritib berilgan [5. 14]. Olimlar o‘zbek shevalarini qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga ajratishda, avvalo, hududiy va tarixiy taraqqiyot bosqichlarini inobatga olganlar. Qarluq lahjasining adabiy tilga tayanch vazifasini o‘tashi, qipchoq lahjasining o‘ziga xos unli tovushlar tizimi, o‘g‘uz

lahjasining sof singarmonizmini tavsiflash asnosida dialektologik maktab yaratildi. Ular adabiy til hamda shevalar o'rtasidagi tafovutlarni asosan tovushlar o'zgarishi, affiksatsiya jarayonlari doirasida o'rganib, ko'plab asosli materiallarni to'plaganlar. Keyinchalik N.Rajabov o'zining maxsus asarlarida shevalar leksikasidagi ma'naviy guruhlarini, arxaik va tarixiy so'zlarni guruhlash orqali dialektologiya fani imkoniyatlarini yanada kengaytirdi [6. 24]. Bu olimlarning faoliyati an'anaviy tasvifiy metodologiyaning eng yetuk namunalari hisoblanadi. Ular shevalarni betakror lisoniy xazina sifatida qayd etib, kelajak tadqiqotlar uchun boy va ishonchli materiallarni meros qilib qoldirgan.

Bugungi globallashuv, axborot almashinuvi tezlashgan davrda faqatgina tasvifiy metodlar bilan cheklanish tilning ichki imkoniyatlarini to'liq ochib berishda kamlik qiladi. T.Enazarov ta'kidlaganidek, zamonaviy o'zbek dialektologiyasi endilikda yangicha metodologik yondashuvlarga, mutlaqo yangi o'rganish mexanizmlariga ehtiyoj sezmoqda [7. 15]. Shu bois, dialekt va adabiy til munosabatini ijtimoiy omillar, muloqot vaziyatlari hamda so'zlovchining lisoniy tanlovi nuqtai nazaridan o'rganish sotsiologiyasining bosh maqsadi etib belgilandi. Jamiyat taraqqiyoti, ichki migratsiya jarayonlari, ta'lim tizimidagi yangilanishlar va ommaviy axborot vositalarining ta'siri natijasida sheva vakillarining nutqida jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Lisoniy moslashuv jarayonida dialektal qatlarning adabiy me'yorlarga moslashuvi yoxud unga nisbatan ma'lum ma'noda qarshilik ko'rsatishi bevosita ijtimoiy, psixologik hamda pragmatik omillarga uzviy bog'liq bo'lib qoladi.

Adabiy til va hududiy shevalar o'rtasidagi farqlanish jarayonlari asosan leksik-semantik hamda pragmatik sathda yaqqol ko'zga tashlanadi. A.Hasanov tadqiqotlarida asoslab berilganidek, adabiy tildagi ayrim leksik bo'shliqlarni to'ldirishda, tilning lug'at boyligini oshirishda dialektal manbalarning o'rni beqiyos [8. 84]. Differensiatsiya jarayoni asosan muayyan bir hududgagina xos bo'lgan, adabiy tilda o'z muqobiliga ega bo'lmagan sof etnografizmlar, maishiy atamalar va chorvachilik, dehqonchilik leksikasi orqali yuzaga chiqadi. Adabiy me'yor o'z tabiatiga ko'ra qat'iy tartib-qoidalarga tayanadi. Shevalar o'ta harakatchan, moslashuvchan va lisoniy tejamkorlik xususiyatini o'zida aks ettiradi. Ulardagi so'z yasash usullari, ma'no ko'chish usullari adabiy tildan farqli o'laroq, bevosita xalqning kundalik ijtimoiy tajribasiga bog'lanadi. Farqlanish faqatgina leksik sathdagi qatlamlar bilan chegaralanib qolmaydi. Semantik differensiatsiya oqibatida bitta so'z adabiy tilda umumiy tushunchani, shevada xususiy ma'noni ifodalashi tez-tez

uchraydi. Dialekt va adabiy normani bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi qo‘yish umuman maqsadga muvofiq sanalmaydi. Ikkala lisoniy tizim birgalikda o‘zbek milliy tilining yaxlit, takrorlanmas va mukammal mezonini hosil qiladi. Binobarin, nazariy farqlanish mexanizmlarini kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish orqali o‘zbek tilining ulkan ichki resurslarini aniq ilmiy asosda baholash imkoniyati yaratiladi.

O‘zbek tilshunosligida shevaga xos so‘zlarning adabiy til qatlamiga o‘tish jarayoni izchil lisoniy mexanizmlarga bo‘ysunadi. Ushbu jarayonni aniq dalillar asosida tekshirish zamonaviy metodologiyaning asosiy vazifasini tashkil etadi. Dialektal qatlam va adabiy me‘yor o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ochiqlashda sof nazariy xulosalar bilan cheklanib qolmay, tadqiqotlarga empirik tahlil usullarini bevosita jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. A.Hasanov o‘z tadqiqotlarida adabiy tildagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirishda dialektizmlarning ishtirokini chuqur tahlil qilgan [8. 12]. Olimning xulosalariga ko‘ra, tildagi moslashish bir necha o‘zaro bog‘liq bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Dastlabki bosqichda hududiy birlik ma‘lum bir sheva vakillari nutqida, asosan tor doirada qo‘llanadi. Keyingi bosqichda mazkur so‘z ommaviy axborot vositalari, badiiy asarlar yoxud ijtimoiy tarmoqlar orqali kengroq ommaga yetib boradi. So‘nggi bosqichda u adabiy til me‘yorlari qatoridan mustahkam joy olib, izohli lug‘atlarga kiritiladi. Integratsiya jarayonida dialektal so‘zning ma‘nosida torayish yoki kengayish holatlari tez-tez kuzatiladi. Masalan, dehqonchilik, polizchilik va chorvachilikka oid ko‘plab hududiy atamalar bugungi kunda umumxalq mulkiga aylanib, tilning ifoda imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirgan [8. 93]. Shevalarning hududiy jihatdan tarqalish o‘rinlarini aniqlashda lingvogeografik xaritalash usuli eng samarali vosita sanaladi. T.Enazarov ishlarida o‘zbek shevalarining leksikasini lingvistik geografiya metodi yordamida o‘rganish mexanizmlari tizimli ravishda ko‘rsatib berilgan [7. 45]. Ushbu metod yordamida sheva so‘zlarining tarqalish maydoni aniq chiziqlar orqali xaritaga tushiriladi. Hozirgi kunda an’anaviy qog‘oz xaritalardan to‘liq voz kechib, geoinformatsion tizimlar dasturlari orqali elektron shevalar atlasini yaratish amaliyotga keng joriy qilinmoqda.

Bunday raqamli atlaslar til xususiyatlarining tarixiy migratsiyasini hamda hududiy chegaralarini aniq matematik o‘lchamlarda ko‘rish imkonini taqdim etadi. Olingan vizual ma‘lumotlar tilshunoslarga hududiy qatlamlarning o‘zaro chatishish nuqtalarini topishda katta yordam beradi. Dialektal matnlarni saqlash va ularni chuqur tahlil qilishda korpus lingvistikasi metodlari yildan yilga asosiy o‘ringa chiqmoqda. O‘zbek xalq shevalari milliy

korpusini yaratish jarayonida dala yozuvlari, audio va video materiallar zamonaviy raqamli formatga o'tkaziladi. Korpus bazasiga kiritilgan har bir sheva so'zi fonetik, leksik va morfologik jihatdan maxsus belgilanadi. Ushbu raqamli mexanizm tadqiqotchilarga yuz minglab matnlar ichidan kerakli dialektal birlikni sanoqli soniyalarda topish va uning qo'llanish ko'lamini statistik jihatdan aniq baholash imkonini yaratadi. Korpus ma'lumotlari asosida tayyorlangan statistik tahlillar shevashunoslikda inson omili ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan subyektiv xulosalarning oldini oladi. Lisoniy shaxsning nutqiy kompetensiyasini o'rganishda sotsiolingvistik so'rovnomalar o'tkazish eng ishonchli usullardan birini tashkil qiladi. Mutaxassislar turli yosh, kasb va ijtimoiy qatlam vakillari o'rtasida maxsus anketalar tarqatish orqali ularning adabiy til hamda sheva o'rtasidagi munosabatini obektiv qayd etadilar.

Muloqot jarayonida lisoniy shaxsning vaziyatga qarab o'z shevasidan adabiy normaga o'tish holatlari bevosita kuzatiladi. Shu orqali qaysi hudud vakillari adabiy tilga tezroq moslashayotgani, qaysi yosh toifasida sheva unsurlari mustahkam saqlanib qolayotgani to'liq oydinlashadi. Olingan empirik natijalar asosida til siyosatini to'g'ri yo'naltirish, ta'lim muassasalarida ona tili o'qitish metodikasini yuksaltirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

O'zbek adabiy tili va hududiy shevalar munosabatini tadqiq etishda zamonaviy mexanizmlarni qo'llash til taraqqiyotining qonuniyatlarini xolis baholash imkonini beradi. Lisoniy integratsiya jarayonlarini korpus lingvistikasi, geoinformatsion tizimlar va sotsiolingvistik usullar yordamida o'rganish an'anaviy tasvifiy metodlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda dialektal faktlarni jamlash va tizimlashtirish ishlari aniq raqamli texnologiyalar vositasida amalga oshirilmogda [7. 88]. Olingan xulosalar asosida o'zbek tilining milliy korpusi doirasida maxsus "Dialektologik elektron baza"ni yaratish istiqboldagi eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu raqamli platforma hududiy matnlarni saqlash, teglash va statistik tahlil qilish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Natijada, shevalarga xos leksik qatlamning adabiy tilni boyitishdagi ishtiroki aniq dalillar asosida ko'rsatib beriladi. Bu amaliyot milliy lisoniy xazinamizni kelajak avlodga aslicha yetkazish kafolatiga aylanadi [8. 105]. Ta'lim tizimida o'quvchilarning dialektal nutqini adabiy me'yorga moslashtirish jarayoni alohida metodik yondashuvni talab etadi. Ona tili darslarida hududiy birliklar va adabiy me'yor o'rtasidagi qiyosiy-tahliliy mashqlarni ko'paytirish orqali o'quvchining lisoniy shaxs sifatidagi nutqiy kompetensiyasi

rivojlantiriladi. Ta’lim oluvchi o‘z shevasi imkoniyatlarini saqlab qolgan holda, rasmiy muloqot vaziyatlarida adabiy me’yorlarga to‘liq rioya qilish malakasini egallashi lozim. Darsliklarda sheva so‘zlarini muloqotdagi xato sifatida ko‘rsatish amaliyotidan chekinib, ularning uslubiy va pragmatik xususiyatlarini tushuntirish kognitiv jihatdan yuqori samara beradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, zamonaviy o‘zbek shevashunosligida lisoniy faktni faqat hududiy belgi sifatida baholash yondashuvi o‘z o‘rnini antropotsentrik paradigmaga bo‘shatib bermoqda. Istiqboldagi tadqiqotlar tilni bevosita jamiyat va muloqot subyekti bilan uzviy aloqadorlikda olib borilishini taqozo qiladi. Bu yo‘nalish o‘zbek tilining ichki imkoniyatlarini milliy o‘ziga xoslik doirasida mukammal o‘rganish va amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – 456 б.
2. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание. — М.: Учпедгиз, 1928.
3. Юнусов Ғ.О. Ўзбек тили диалектологияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 1960.
4. Эгамов В. Ўзбек тилида диалектлар ва уларнинг ўрганилиши. — Тошкент: Фан, 1992.
5. Эназаров Т. Диалектология методологияси. Монография. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 152 б.
6. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
7. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
8. Ҳасанов А. Ўзбек адабий тилидаги лексик бўшлиқларни тўлдиришнинг диалектал асослари. Монография. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – 131 б.